

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Qodirov</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
<b>M.Hamidjonov, N.Shodilbekov</b>	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
<b>B.Qurbanova</b>	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashтирish .....	107
<b>D.Xakimova</b>	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi .....	111
<b>B.Umarov</b>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning Ilmiy-nazariy asoslari.....	114
<b>Sh.Ro'zaliyev</b>	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi .....	118
<b>F.Yuldashev</b>	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati .....	123
<b>A.Rajabov</b>	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
<b>Z.Xamraqulov</b>	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
<b>S.O.Omonova</b>	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiropi .....	138
<b>A.T.Tuychiyev</b>	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati .....	142
<b>N.E.G'olibjon</b>	
Oliy ta'lif talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari .....	149
<b>J.B.Hamraqulov</b>	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari .....	154

## IQTISODIYOT

---

<b>M.Adxamov</b>	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
<b>A.A.Oripov</b>	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash .....	161

## FALSAFA

---

<b>M.Qaxxarova, M.Raximshikova</b>	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi .....	169
<b>A.Sufiyev</b>	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari .....	175
<b>B.G'aniyev</b>	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari .....	181
<b>S.Yuldashev</b>	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari .....	186
<b>Sh.Usanov, E.Avazov</b>	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni .....	190
<b>M.Choriyeva</b>	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar .....	195
<b>K.Saydazimov</b>	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar .....	199
<b>A.Mo'ydinov</b>	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati .....	204

**TALABALARNI HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA IJTIMOIY HAYOTGA  
TAYYORLASHDA MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISHNI  
MODELLASHTIRISH**

**МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРИСПОСОБЛЕНИЙ В  
ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИКИ  
СОТРУДНИЧЕСТВА**

**MODELING OF INCREASING THE POSSIBILITIES OF ADAPTATIONS IN PREPARING  
STUDENTS FOR SOCIAL LIFE BASED ON THE PEDAGOGY OF COOPERATION**

Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna

– Farg'ona davlat universiteti, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada talabalarda hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish, bilim obyektlarini modellar orqali o'rganish xususida fikr yuritiladi.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается моделирование повышения возможностей приспособлений в подготовке студентов к социальной жизни на основе педагогики сотрудничества, изучаются объекты познаний через модели.*

**Abstract**

*This article examines the modeling of increasing the capabilities of adaptations in preparing students for social life based on the pedagogy of cooperation, the objects of knowledge are studied through models.*

**Kalit so'zlar:** hamkorlik pedagogikasi, moslashuvchanlik, modellashtirish, bilim obyektlarini modellar orqali o'rganish.

**Ключевые слова:** педагогика сотрудничества, приспособление, моделирование, изучение объектов познаний через модели.

**Key words:** pedagogy of cooperation, adaptation, modeling, study of objects of knowledge through models.

**KIRISH**

So'nggi yillarda pedagogika fanida modellashtirish usuliga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda, u, bir tomonidan, murakkab jarayonlar va hodisalarini model tasvirlarida mos ravishda aks ettirishga, boshqa tomondan esa, ularni komponentlar, aloqalar, funksiyalar, asosiy qonun-qoida va harakatlar obrazi shaklida taqdim etishga imkon beradi.

Modellashtirish – bilim obyektlarini modellar orqali o'rganish; tadqiqotchilarining o'rganish obyektlarini jarayon va hodisalarini qulayroq tushuntirib berishda modellarini qurish va o'rganish, shuningdek, voqelikni idrok etishni maqsadli soddallashtirishdir.

Modellashtirishning mohiyati turli tabiatga ega obyektlarni ularning analoglari (modellari)da, tuzilishi, funksiyalari va natijalari darajasida o'rganishdan iborat.

Shu tariqa modellashtirishning maqsadi — muayyan tashqi yoki ichki hodisalar ta'siri ostida bilish obyektining faoliyati hamda ichki jarayonlarining borishi yoxud ko'rib chiqilayotgan tizimni tashkil etuvchi alohida elementlari xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini takrorlashdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Modellashtirish xususida V.P.Bespalko [3], A.I.Burov[5], M.S.Kagan[8], N.I.Kiyashenko, N.M.Leyzerov[9]larning konseptual fikr-mulohazalar tizimi, V.S.Bibler[4], L.S.Vigotskiy[6], S.L.Rubinshteyn[10]larning psixologik-pedagogik g'oyalarining yutuqlarida fikrlar bildirilgan. V.V.Davidov [7]esa "modellashtirish — bu biron-bir narsaning modelini yasash; tabiiy sharoitlarda kechayotgan jarayonlarga tajriba natijalariga ko'ra baho berish uchun fizik hodisa va jarayonlarni modellarda tadqiq qilishdir", deb ta'kidlagan.

Har qanday model modellashtirish obyekti va subyektining ularga xos bo'lgan alohida, o'ziga xos xususiyatlarni ajratgan holda aniq tavsifini o'z ichiga oladi va ularning mavjudligi tufayli jarayonning mohiyati shu nuqtayi nazardan baholanadi.

Potensial ravishda, tadqiqot faoliyati jarayonida ushbu model bir nechta gnoseologik funksiyalarni bajarishga qodir, ya'ni:

- o'rganilayotgan hodisa, uning ichki tuzilishini yaqqol aks ettirishga imkon beradigan illyustrativ funksiya;
- izohlovchi funksiya, bilish obyekti haqidagi tasavvurlar;
- ijtimoiy voqealikning o'rganilayotgan parchasining yangi tomonlarini kashf etish;
- obyektning individual xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish va baholashni amalga oshirishga qaratilgan evristik funksiya;
- o'rganilayotgan hodisaning keyinchalik amalda joriy bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida ma'lumot olish bilan bog'liq bashorat qiluvchi funksiya;
- ijtimoiy obyektlarni takomillashtirishning maqbul usul va yo'llarini tanlashga yordam beradigan transformatsion funksiya.

Modelni ishlab chiqishda modellashtirishning pirovard maqsadi pedagogik faoliyatning ilgarilovchi va inson ongida voqealarni aks ettiruvchi ideal natijasini, o'rganilayotgan yoki tashkil etilayotgan jarayonning boshlang'ich va yakuniy bosqichlarini oldindan ko'ra bilish lozim.

Zeroki, har qanday pedagogik jarayonning maqsadi — bu talabaning o'qituvchilar bilan o'zaro aloqa natijalarini umumlashtirilgan aqliy obrazlar shaklida bashorat qilish bo'lib, ularga asosan ushbu jarayonning boshqa barcha komponentlari tanlab olinadi, o'zaro bog'lanadi va quriladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish, bilim obyektlarini modellar orqali o'rganishning nazariy muammolarini aniqlash va ularni tahlil qilish jarayonida tasniflash, tavsifiy, appozitiv, qiyosiy, transformatsiya metodlaridan foydalananilgan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, yuqorida fikrlardan kelib chiqib, talabaning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish jarayonining quyidagi bir necha bosqichlari tavsija etiladi:

1-bosqich — propedevtik — tashxisiy. U pedagogik hamrohlikning barcha ishtirokchilari: hamrohlik qiluvchilarining ham, hamrohlik qilinayotganlarning ham moslashuv jarayoniga tayyorlanishi va kirishni anglatadi. Ushbu bosqichning davomiyligi 6-8 hafta. Ushbu bosqichda bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: birinchi kurs o'quv guruhlari o'qituvchilari va tyutorlarini tayyorlash, guruhlar tyutorlari tomonidan bir yillik moslashuv dasturining ishlab chiqilishi, tyutorning talabalarining shaxsiy ishlari bilan tanishishi, o'quv guruhida talabalar bilan tanishishni tashkil etish, har bir guruh ishtirokchisining moslashuv salohiyatini aniqlash, talabalarining ushbu o'quv guruhida muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradigan omillarni aniqlash.

2-bosqich — guruhda konstruktiv o'zaro aloqa tajribasini to'plash asosiy sanaladi. U talabalarining o'qituvchilar va (tyutorlar sifatida ishtirok etuvchi) yuqori kurs talabalarini rahbarligida guruh ichidagi munosabatlar tizimida o'zini o'zi amalga oshirishning turli xil variantlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy sinamalar maydonidir. Bosqich 6 oy davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: tyutor tomonidan guruhda konstruktiv o'zaro aloqa usullarining mashq qilinishining tashkil etilishi, guruhda jamoani hosil qilish ustida muntazam ishlash, shaxsning turli guruhdagi shaxsiy xususiyatlari hamda uning kommunikativ salohiyatining namoyon bo'lishini talab qiladigan o'zaro aloqa vaziyatlarini yaratish, guruh ichidagi o'zaro aloqa natijalarini tahlil qilish, keyin algoritm takrorlanishi mumkin: ko'nikma va qobiliyatlarining yangi guruhlarining mashq qilinishini tashkil etish, xususan, talaba ushbu ko'nikmalarni namoyon etishi, o'z faoliyatini va guruhdagi muloqotini tahlil qilishi va qayta anglashi mumkin bo'lgan real vaziyatlarni yaratish.

3-bosqich — talabaning guruhda moslashuvi natijalarini sarhisob qilish, mustaqil va ekspert baholash, ushbu yutuqlarni o'quv faoliyati natijalari bilan bog'lash, auditoriyadan tashqari faoliyatga qo'shilganligi, qiyinchiliklarni aniqlash, talaba va ushbu o'quv guruhi a'zosining keyingi rivojlanishining individual traektoriyalarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bosqich 4-6 hafta davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi — o'z-o'zini tahlil qilish, mikroguruhlarda tahlil qilish, umumguruhiy tahlil qilish va refleksiyalash (qayta anglash), tyutor bilan individual refleksiyaviy uchrashuvlar tashkil etish.

Natijada moslashuv jarayonini amalga oshirish samarali bo'lishi uchun o'quv jarayonida murakkablashishiga qarab faol va interfaol mashg'ulot shakllaridan foydalananiladi:

## PEDAGOGIKA

boshlang'ich daraja — me'yoriy-mantiqiy va kommunikativ; innovatsion loyihalar; hayotiy vaziyatlarni modelllashtiruvchi usullarni qo'llash va amalgalashirish.

O'yinli usullar, murakkablikning nomlanishi, rolli o'yin, ishbilarmonlik o'yini, loyihaviy aloqlar texnologiyasi, talabaning o'quv guruhidagi ijtimoiy-psixologik ahvoli, talabaning qiyinchiliklarni yengish, uning o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati va tanlangan kasb haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun salohiyatini kengaytiradi. Bo'linmalarning strategik, taktik va tezkor monitoringi quyidagicha:

- strategik monitoring talabalarni moslashtirish uchun shart-sharoitlarni o'rganish, hamrohlikning maqsad va vazifalarini aniqlash imkonini beradigan tashxisiy vositalar majmuini o'z ichiga oladi.

- taktik monitoring talabalarning moslashganlik darajasi, ularning guruhdagi o'zaro aloqaga yo'nalanligi, asosan standartlashtirilgan test metodikalariga bo'lgan ehtiyojni kuzatib borishga imkon beradigan tashxisiy vositalar majmui yordamida, shuningdek, o'zgarishlar dinamikasini miqdoriy va sifatli kuzatib borishga imkon beradigan, talabalarning o'zlashtirishini tahlil qilish orqali ta'minlanadi.

Talabalarning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish samaradorligi mezonlari etib quyidagi qoidalar belgilangan:

- talabalarning ta'lif jarayoni hamda auditoriyadan tashqari faoliyatidagi o'quv va shaxsiy yutuqlari;

- tanlangan kasb bo'yicha oliy o'quv yurtidagi ta'lif jarayonidan qoniqish; guruhning shaxsiy idrokidagi "biz" ta'rifida ifodalangan, o'z o'quv guruhiga nisbatan ijobiy munosabat;

- hamrohlik jarayoniga uslubiy ta'minlash;
- talabalar tomonidan hamrohlikka bo'lgan talab.

Moslashuv jarayoniga muvaffaqiyatli hamrohlik qilish natijasi quyidagicha:

- talaba yangi muhitda o'zini tutish talablari, me'yorlari va qoidalarini o'zlashtiradi;

- yangi ijtimoiy qurshov bilan muloqot qilishda psixologik qoniqishni boshdan kechiradi;

- talabalarning boshqa talabalar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlari yo'liga qo'yildi;

- shaxs oliy o'quv yurtidagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga yo'naltiriladi.

Shu tariqa, talabalarning o'quv guruhiga moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish modeli o'rganilayotgan jarayonning mohiyati va mazmunini yorqin namoyish etadi. Uning asosiy vazifasi talabaning tashqi tomonidan moslashganligini ekspert baholash emas, balki talabani oldida turgan moslashuv vazifalari, guruhdoshlari bilan konstruktiv aloqalarni o'rnatish va saqlashda yuzaga keladigan muammolarni tushunishga rag'batlantirish hisoblanadi.

Binobarin, hamrohlik — birinchidan, umumiyligi yaxlit, qolaversa, har tomonlama faoliyat jarayoniga ko'maklashish va yordam berishning umumiyligi tizimi; ikkinchidan, integrativ — innovatsion texnologiya, uning tub asosi takomillashishi va o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatini dolzarblashtirish, qolaversa, buni ochib berish uchun kerakli shart-sharoit yaratish va natijada alohida shaxsning o'zining asosiy funksiyalarini bajarishi; uchinchidan, hamrohlik qiluvchilar va yordamga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi alohida munosabatlar jarayonidir.

Talabalarga o'yinli vaziyatlarda ba'zi muhim kommunikativ ko'nikmalarini me'yoriga yetkazishga imkon beradigan trening mashg'ulotlarini o'tkazish ushbu bosqichdagi ishning muhim yo'nalishi bo'lgan. Ushbu mashg'ulotlarning dolzarbligi guruhda birinchi nizolarning paydo bo'lishi (guruhning rivojlanish me'yori, ayniqsa, pedagogik hamrohlik orgali rivojlanish) tufayli bir muncha vaqt o'tib orta boshlagan. Bu dasturni muloqotdagi nizolarning oldini olish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ishbilarmonlik aloqalarni asoslarini o'zlashtirish bilan bog'liq mavzular bilan to'ldirishni talab qildi.

Biz jarayonga dasturiy-maqsadli yondashuvning tashkil etuvchisi hisoblanadigan, talabalarni o'quv guruhiga moslashtirishning maqsadli dasturining texnologik xaritasini taklif etamiz. Mazkur maqsadli dasturning texnologik xaritasi tyutorga jarayonni kompleks va tizimli ravishda qurishga imkon beradi.

Maqsadli blokning vazifalari:

- talabaning ta'sir obyekti pozitsiyasidan guruh ichidagi munosabatlar subyekti pozitsiyasiga o'tishda pedagogik yondashuv jihatidan boshqarishni amalgalashirish;

- birinchi kurs talabalarini tavsiya etilgan guruhiy faoliyat turlariga kiritish;

- kursdoshlar bilan sheriklik, o'zaro munosabatlarga ko'maklashish va hamrohlik qilish.

Shunday qilib, kiritilgan kuzatish, talabalar faoliyatining natijalari, ularning o'zlashtirish darajalarini baholash usullari yordamida talabalarning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish modelini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Ammo ilmiy asoslangan xulosalar uchun kuzatilgan tendensiyalarni miqdoriy va sifat jihatdan tasdiqlaydigan monitoring ma'lumotlarini taqdim etish talab etiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Akramov A.A. Bo'lajak o'qituvchilar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning o'rni // Zamonaviy ta'lim, 2017. – № 4.
2. Ashurova S.I. Maxsus fanlarni modullar o'qitish jarayonini tashkil qilish va o'tkazish // Kasb-hunar ta'limi. –№ 5– Toshkent, 2004.
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технолгии. Москва: Педагогика, 1989 – 192 с.
4. Библер В.С. Мышление как творчество (Введение в логику мысленного диалога) М.: Политиздат.1975-399 с.
5. Буров А.И. Эстетика: проблемы и споры. Москва: Искусства, 1975 -175с.
6. Выготский Л.С. Психология искусство. М.: Искусство, 1968.
7. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. М., 1996.
8. Каган М.С. Мир общение. Москва: Политиздат. 1988.
9. Киященко Н.И., Лейзеров Н.М. Эстетическое творчество: О пробл.эстет.творчества в развитом соц.общество. М.: Знание 1984-112 с.
10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии-Издательство: Питер. 2022-720 с.